DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING BUDJET MABLAG'LARIDAN OQILONA FOYDALANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI 1427
Kasimova Gulyor Axmatovna, Esenbayeva Biybinaz Maxmut qizi

INNOVATSION MENEJMENT METODOLOGIYASI: NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMIDAGI AHAMIYATI 1432
Atamatov Abduxalil Salomovich

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTITSIYALARNI "CROWD INVESTING" PLATFORMALARI ORQALI JALB ETISH 1437
Ibragimov G'anijon G'ayratovich

TURIZM KLASTERLARINING EVOLUTSIYASI: AN'ANAVIY MAJMUALARDAN RAQAMLI KLASTERLARGACHA 1441
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi

IPO O'TKAZISH BOSQICHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI TAHLILI 1446
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORPORATIV MADANIYATNING ZAMONAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI 1455
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA SUV RESURSLARINI SAMARALI TAQSIMLASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 1463
Amanbaev Amanali Ortazbaevich

FORECASTING THE EFFICIENCY OF SOLID WASTE RECYCLING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES 1467
Axmedov Sheramat Umurxojayevich

XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI 1472
Toxirova Gavxaroy Tolibjon qizi

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE INSTITUTIONAL TRANSFORMATION OF ACCOUNTING AND AUDITING SYSTEMS IN THE DIGITAL ECONOMY 1477
Jumanazarov Ruzimurod, Rabbimov Elbek

TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH YO‘NALISHLARI 1481
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich

XORAZM VILOYATIDA SUV RESURSLARI TANQISLIGI VA TUPROQ DEGRADATSIYASINING MINTAQANING EKOLOGIK-IQTISODIY HOLATIGA TA’SIRI 1486
Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o‘g‘li

O‘ZBEKISTON EKSPORT SALOHIYATINING HUDUDIY TAFOVUTLARI TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA (2021–2025) 1491
Yaqubov San’at Shonazarovich

KICHIK VA O‘RTA AGROBIZNESLARNING EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI 1501
Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich

WTO ACCESSION AND ECONOMIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM VIETNAM AND KAZAKHSTAN 1507
J.Ya. Nurillaev

MILLIY IQTISODIYOTDA TASHQI EKOLOGIK ZARARLARNI ICHKILASHTIRISH MEXANIZMLARI 1513
Sodikov Zokir Rustamovich

KRIPTOBIRJA AXBOROT TIZIMIDA SERVER YUKLAMASINI SAMARALI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH 1519
Shoaxmedova Nozima Xayrullayevna

TEJAMKORLIK VA INNOVATSIYA: IQTISODIY O‘SISHNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI 1524
Allaberganov Zakir G‘ayibovich

HUDUDIY RIVOJLANISHDA MAHALLIY BUDJET VA MOLIYAVIY MANBALARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MEXANIZMLARI 1530
Sharipov Abror Komilovich

O‘ZBEKISTON O‘RTA BIZNES KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR, SABABLAR VA KOMPLEKS YECHIMLAR 1538
Kutimov Baxtiyor, Abduraimova Maftunaxon Axmatovna

FISKAL SIYOSAT VA IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK: DAVLAT QARZI, INVESTITSIYALAR VA SOLIQ YUKLAMASI TA’SIRINING EKONOMETRIK BAHOLASHI 1541
Nazarova Ra’no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o‘g‘li

YAYLOV CHORVACHILIGIDA HUDUDIY IXTISOSLASHUVNI SHAKLLANTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI 1550
Xalmirzaev Axmadjan Axunovich

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA “YASHIL” MENEJMENTNI JORIY ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI 1555
Abdullaev Nokisbay Abdullaevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA YASHIL SOLIQLARNING AHAMIYATI: IQTISODIY TARAQQIYOT SARI YASHIL QADAM 1559
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolniyazov Murodbek Madiyarovich

METHODOLOGICAL MODELS FOR THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN REGIONS 1566
Majidova Sanobar Daminovna

UZBEKISTAN UTILIZES DIGITAL PLATFORMS TO PROMOTE SUSTAINABLE GROWTH IN TOURISM: A COMPARATIVE STUDY BASED ON THE BELT AND ROAD INITIATIVE 1573
Li Yang

SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT JARAYONLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI 1581
Tuyinov Botir Ismatovich

TRANSFORMATION OF THE VOCATIONAL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN: CULTURAL AND INSTITUTIONAL APPROACHES 1588
Abdulmajeed Nabeel Azouz

GULCHILIK TARMOG‘IDA OILAVIY KASBIY SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH: TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA 1594
Nurmatova Dilola Dilshod qizi

RAQAMLASHTIRISH BOSHQARUV INFRATUZILMASI SIFATIDA: O‘ZBEKISTONDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA KORPORATIV BOSHQARUV 1599
Ruziyeva Barno Yadgarovna

IJRO HUJJATLARINI MAJBURIY IJRO ETISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 1602
Matmuratova Nasiba Azatovna

IJRO HUJJATLARI TALABLARINI BAJARISHDAN BO‘YIN TOVLAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI SODDALASHTIRISH MASALALARI 1607
Axmedov Zafarjon Zokirjon

AHOLINI IJTIMOIY TA’MINOT TIZIMINING TAMOYILLARI VA UNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI 1611
Xusanov Baxodir Sheraliyevich

BEYOND GREEN: THE ECONOMIC IMPACT OF ELECTRIC URBAN TRANSPORT INFRASTRUCTURE 1615
Khannarov Komiljon Karimovich, Shukurillaev Nizomiddin Akmaljon ugli

TIJORAT BANKLARIDA KREDITLARNING QAYTMASLIGI (NPL) VA LIKVIDLIK: PUL OQIMLARIDAGI UZILISHLAR TAHLILI 1621
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o‘g‘li

TIJORAT BANKLARIDA KREDITLARNING QAYTMASLIGI (NPL) VA LIKVIDLIK: PUL OQIMLARIDAGI UZILISHLAR TAHLILI

Sulaymanov Samandarboy Adhambek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sulaymanovsamandarboy@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) darajasi bilan likvidlik holati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni pul oqimlaridagi uzilishlar kontekstida tahlil etadi. Tadqiqotda dinamik va tavsifiy yondashuvlar qo‘llanilib, muammoli kreditlar ulushining o‘zgarishi banklarning foizli daromadlari, resurs bazasi barqarorligi, likvid aktivlari hajmi hamda joriy to‘lov qobiliyatiga ta’siri baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, NPL darajasining ortishi pul oqimlari kirimini sekinlashtiradi va likvidlik bosimini kuchaytiradi, aksincha, uning kamayishi pul oqimlarining barqarorlashuviga xizmat qiladi. Tadqiqotda kredit va likvidlik risklarini integratsiyalashgan holda boshqarish, muammoli kreditlarni erta aniqlash, restrukturizatsiya mexanizmlarini takomillashtirish hamda likvidlik buferlarini mustahkamlash zarurligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: muammoli kreditlar (NPL), likvidlik, pul oqimlari uzilishlari, kredit riski, likvidlik riski, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, kredit portfeli sifati, to‘lov qobiliyati, risklarni boshqarish.

Abstract. This study analyzes the relationship between non-performing loans (NPLs) and the liquidity position of commercial banks through the lens of cash flow disruptions. Using dynamic and descriptive approaches, the study evaluates how changes in the share of problem loans affect banks’ interest income, funding stability, liquid asset levels, and current solvency. The findings indicate that an increase in NPLs slows down cash inflows and intensifies liquidity pressure, whereas a decrease contributes to the stabilization of cash flows. The study highlights the importance of early detection of problem loans, enhancement of restructuring mechanisms, strengthening of liquidity buffers, and integrated management of credit and liquidity risks.

Key words: non-performing loans (NPL), liquidity, cash flow disruptions, credit risk, liquidity risk, commercial banks, financial stability, loan portfolio quality, solvency, risk management.

Аннотация. Данное исследование посвящено анализу взаимосвязи между уровнем проблемных кредитов (NPL) и ликвидностью коммерческих банков через призму разрывов денежных потоков. В работе применены динамический и описательный подходы, позволившие оценить влияние изменения доли проблемных кредитов на процентные доходы банков, устойчивость ресурсной базы, объем ликвидных активов и текущую платёжеспособность. Результаты исследования показали, что рост уровня NPL замедляет приток денежных средств и усиливает давление на ликвидность, тогда как его снижение способствует стабилизации денежных потоков. Обоснована необходимость раннего выявления проблемных кредитов, совершенствования механизмов реструктуризации задолженности, укрепления ликвидных буферов и интегрированного управления кредитным и ликвидным рисками.

Ключевые слова: проблемные кредиты (NPL), ликвидность, разрывы денежных потоков, кредитный риск, риск ликвидности, коммерческие банки, финансовая устойчивость, качество кредитного портфеля, платёжеспособность, управление рисками.

KIRISH

Tijorat banklari iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikni amalga oshiruvchi asosiy institutlardan biri bo‘lib, ularning barqaror faoliyati nafaqat bank tizimi, balki butun xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholining moliyaviy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bank faoliyatining uzluksizligi, avvalo, aktivlar sifati va likvidlik darajasining o‘zaro muvozanatda saqlanishiga bog‘liq. Agar bank kredit portfeli yetarli darajada sifatli shakllanmasa, kutilayotgan pul tushumlari barqarorligi pasayishi mumkin, bu esa vaqt o‘tishi bilan bankning joriy majburiyatlarini bajarish imkoniyatlariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan kreditlarning qaytmasligi va likvidlik muammolari o‘zaro bog‘liq moliyaviy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda bank amaliyotida risklarni boshqarish masalasiga e’tibor sezilarli darajada kuchaygan. Shunga qaramay, muammoli kreditlar ulushining oshib borishi banklarning moliyaviy barqarorligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Muammoli kreditlar bank balansida nafaqat sifati past aktiv sifatida, balki kelajakdagi pul kirimlarining qisqarishi, foizli daromadlarning kamayishi, qo‘shimcha zaxira xarajatlarining ortishi va natijada likvid resurslar yetishmovchiligi ehtimolining kuchayishi orqali namoyon bo‘ladi. Demak, NPL darajasining oshishi bankning daromadliligi bilan bir qatorda uning to‘lov qobiliyati va resurs bazasi barqarorligiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida bank tizimini isloh qilish, tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv tijorat banklarida kredit portfeli sifati va likvidlik holatini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish zaruratini yanada kuchaytiradi. Chunki bank tizimi barqarorligini ta’minlash nafaqat kreditlash hajmining oshishi, balki kreditlarning o‘z vaqtida qaytishi, pul oqimlarining uzluksizligi va majburiyatlarning o‘z muddatida bajarilishi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan tijorat banklarida kreditlarning qaytmasligi darajasi va likvidlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni pul oqimlaridagi uzilishlar asosida tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, amaliyotda kredit riski va likvidlik riski ko‘pincha alohida boshqaruv obyektlari sifatida qaraladi. Holbuki, kreditlar bo‘yicha tushumlarning kechikishi yoki to‘liq amalga oshmasligi bankning pul oqimlari tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatib, rejalashtirilgan kirim va chiqimlar o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa likvidlik bosimining ortishiga olib keladi. Ayniqsa, muammoli kreditlar ulushining oshishi bankning bozordagi ishonchliligiga ham ma’lum darajada ta’sir etib, tashqi moliyalashtirish imkoniyatlarini qisqartirishi hamda depozit oqimlarining beqarorlashuviga sabab bo‘lishi ehtimoli mavjud. Shu sababli NPLni faqat kredit faoliyati doirasidagi muammo sifatida emas, balki likvidlikni boshqarish tizimi bilan uzviy bog‘liq omil sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Mavzuning yana bir muhim jihati shundaki, muammoli kreditlarning likvidlikka ta’siri ko‘pincha darhol namoyon bo‘lmaydi. Dastlab banklar yuqori likvid aktivlar, qisqa muddatli qo‘llab-quvvatlovchi manbalar yoki ichki zaxiralar hisobiga nisbatan barqaror faoliyat yuritayotgandek ko‘rinishi mumkin. Biroq kredit portfeli sifati tiklanmagan taqdirda, vaqt o‘tishi bilan foizli tushumlar kamayadi, muammoli aktivlar bo‘yicha yo‘qotishlar ortadi, likvid aktivlar bosqichma-bosqich qisqaradi va pul oqimlaridagi uzilishlar chuqurlashadi. Shu bois muammoli kreditlar va likvidlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni statik ko‘rsatkichlar asosida emas, balki dinamik jarayon sifatida o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Bugungi bank tizimida ushbu masalaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi, mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar, tashqi iqtisodiy noaniqliklar, resurslar narxining oshishi va bozordagi ishonch omilining tebranishi banklar faoliyatida pul oqimlarini boshqarishni murakkablashtirmoqda. Bunday sharoitda muammoli kreditlar bankning ichki moliyaviy barqarorligiga bosim o‘tkazuvchi asosiy omillardan biriga aylanishi mumkin. Natijada likvidlikni ta’minlash masalasi nafaqat yetarli naqd mablag‘ mavjudligi, balki kutilayotgan tushumlarning ishonchliligi, aktivlar sifati va majburiyatlarning muddat jihatidan muvofiqligi orqali baholanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida kreditlarning qaytmasligi darajasi bilan likvidlik holati o‘rtasidagi bog‘liqlikni pul oqimlaridagi uzilishlar orqali tahlil qilish, ushbu jarayonning ichki mexanizmlarini ochib berish hamda bank amaliyoti uchun tegishli ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida muammoli kreditlarning bankning foizli tushumlariga, resurs bazasi barqarorligiga, likvid aktivlar holatiga va joriy to‘lov qobiliyatiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, kredit riski bilan likvidlik riskini yagona boshqaruv tizimi doirasida baholash zarurligi asoslab beriladi.

Umuman olganda, ushbu mavzu tijorat banklari faoliyatida muammoli kreditlarning ta’sirini faqat aktivlar sifati yomonlashuvi bilan cheklab qo‘ymasdan, ularning pul oqimlari, likvidlik bosimi va moliyaviy barqarorlikka ta’sirini kompleks tarzda yoritish imkonini beradi. Shu jihatdan tadqiqot natijalari banklarda erta ogohlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, kredit monitoringini kuchaytirish, likvidlikni boshqarish yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqish hamda risklarni integratsiyalashgan tarzda boshqarish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklarida kreditlarning qaytmasligi va likvidlik o‘rtasidagi bog‘liqlik asosan uch yo‘nalishda izohlanadi: birinchidan, muammoli kreditlar bankning kutilayotgan pul kirimlarini kamaytiradi; ikkinchidan, zaxira ajratish va kapitalga bosim kuchayishi natijasida moliyalashtirish qiymatini oshiradi; uchinchidan esa bankning ishonchliligi pasayib, depozitlar oqimi va bozor resurslariga kirish imkoniyatlari

yomonlashadi. Shu bois zamonaviy tadqiqotlarda NPL va likvidlik ikki alohida ko‘rsatkich emas, balki bankning pul oqimlari barqarorligiga ta’sir qiluvchi o‘zaro uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinadi.

Bank likvidligi mohiyatini tushuntirishda D. Diamond va P. Dybvigning yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Ular banklarni qisqa muddatli majburiyatlar va uzoqroq muddatli aktivlar o‘rtasida vositachilik qiluvchi institut sifatida ko‘rsatib, aynan shu transformatsiya banklarni likvidlik xatariga sezgir qilishini asoslab bergan. Ularning nazariyasiga ko‘ra, bank aktivlari darhol pulga aylantirilmaydigan sharoitda mijozlar talabining keskin oshishi yoki tushumlarning kechikishi likvidlik bosimini yuzaga keltiradi[1]. Mazkur yondashuv NPL bilan bog‘langanda shuni anglatadiki, kreditlar bo‘yicha rejalashtirilgan qaytishlar buzilsa, bankning likvidlik transformatsiyasi mexanizmi izdan chiqadi.

A. Berger va C. Bouwman banklarning iqtisodiyotda likvidlik yaratish funksiyasini chuqur tahlil qilib, banklar nafaqat mavjud likvid resurslarni taqsimlashini, balki aktiv va passivlar tarkibi orqali yangi likvidlik hosil qilishini ko‘rsatadi. Ularning fikricha, kredit portfeli sifati pasaysa, bankning likvidlik yaratish salohiyati ham susayadi[2]. Chunki muammoli kreditlar daromad keltiruvchi aktivdan likvidlikni “yutuvchi” aktivga aylanishi mumkin. Bu holat ayniqsa pul oqimlari uzilishlari yuzaga kelgan sharoitda yaqqol ko‘rinadi.

M. Brunnermeier va L. Pedersen esa moliyalashtirish likvidligi hamda bozor likvidligi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni asoslab bergan. Ularning yondashuvi bevosita bank kreditlari haqidagi tadqiqot bo‘lmasa-da, NPL va bank likvidligi bog‘liqligini tushuntirishda juda muhimdir. Muammoli aktivlar hajmi oshganda bankning risk darajasi yuqori baholanadi, buning natijasida tashqi resurslar qimmatlashadi yoki umuman cheklanadi[3]. Demak, kredit sifati yomonlashuvi moliyalashtirish likvidligiga zarba berib, bankning pul oqimlari uzilishiga olib kelishi mumkin.

V. Vento va P. Ganga bank likvidlik riskini boshqarish masalasiga institutsional nuqtai nazardan yondashib, likvidlik muammosi faqat joriy kassadagi mablag‘ yetishmovchiligi bilan emas, balki aktivlar sifatining pasayishi, moliyaviy bozor ishonchining susayishi va noto‘g‘ri boshqaruv qarorlari bilan ham bog‘liqligini ta’kidlaydi. Ularning tadqiqotlarida likvidlik riskini nazorat qilish uchun stress-test, pul oqimlari monitoringi va favqulodda moliyalashtirish rejasi muhim vosita sifatida ko‘rsatiladi[4]. Bu yondashuv NPL va likvidlik o‘rtasidagi kechikuvchi ta’sirni tahlil qilishda ayniqsa dolzarbdir.

Muammoli kreditlar determinantsini empirik jihatdan o‘rgangan olimlardan D. Louzis, A. Vouldis va V. Metaxas NPLning shakllanishida makroiqtisodiy sharoit, ishsizlik, foiz stavkalari va bankning ichki boshqaruv sifati muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Ularning tadqiqoti asosan muammoli kreditlarning sabablari va dinamikasiga qaratilgan bo‘lsa-da, undan muhim xulosa kelib chiqadi: kredit sifati yomonlashuvi tasodifiy holat emas, balki vaqt o‘tishi bilan kuchayadigan jarayon bo‘lib, u bankning kelgusi pul oqimlariga oldindan bosim o‘tkazadi[5]. Shu sababli NPL oshishini likvidlikdagi kelajak muammolarining erta signali sifatida talqin qilish mumkin.

R. Espinoza va A. Prasad bank kreditlari sifati va makroiqtisodiy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, iqtisodiy o‘sishning sekinlashuvi, foiz yukining ortishi va moliyaviy sharoitlarning yomonlashuvi NPL hajmini oshirishini qayd etgan. Ularning natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammoli kreditlar ko‘payishi bankning foydaliligiga va aktivlar aylanishiga salbiy ta’sir qiladi[6]. Bu esa bevosita likvidlikka ham ta’sir etadi, chunki bankning ichki pul generatsiyasi sustlashadi va tashqi moliyalashtirishga ehtiyoj ortadi.

N. Klein Markaziy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropa banklari misolida olib borgan tadqiqotlarida NPLning ortishi banklarning kreditlash imkoniyatini cheklashini, kapital bosimini kuchaytirishini va moliyaviy vositachilik samaradorligini pasaytirishini ko‘rsatadi. Mazkur xulosa likvidlik nuqtai nazaridan ham muhim: bank muammoli kreditlar sababli yangi resurslarni faol iqtisodiy aylanishga yo‘naltirish o‘rniga mavjud yo‘qotishlarni qoplashga majbur bo‘ladi. Natijada pul oqimlari elastikligi pasayadi[7].

A. Acharya va N. Mora moliyaviy tanglik sharoitida banklarning likvidlikni “jamg‘arish” xatti-harakatini o‘rganib, aktivlar sifati bo‘yicha xavotir kuchaygan paytda banklar likvidlikni ushlab qolishga intilishini ko‘rsatadi. Bunday vaziyatda banklar yangi kreditlashni qisqartiradi, qimmat resurslar jalb qiladi yoki yuqori likvid aktivlar ulushini oshiradi[8]. Muammoli kreditlar ulushi ortgan banklarda aynan shunday himoyaviy xatti-harakatlar kuzatilishi mumkin. Bu esa bir tomondan bankni qisqa muddatda saqlab qolsa, ikkinchi tomondan real sektorga kredit oqimini cheklaydi va umumiy moliyaviy vositachilikni susaytiradi.

M. Cornett, J. McNutt, P. Strahan va H. Tehranian banklarning likvidlik xatari va kredit taklifi o‘rtasidagi bog‘liqlikni inqiroz davridagi ma’lumotlar asosida tahlil qilib, resurslar noaniq bo‘lganda banklar kreditlash siyosatini keskin ehtiyotkorlashtirishini ko‘rsatgan[9]. Ularning yondashuvi NPL va likvidlik aloqasini tushuntirishda muhim, chunki muammoli kreditlar ko‘payishi bilan bank ichki resurslarni himoya qilishga o‘tadi, natijada erkin pul oqimi kamayadi va bankning bozor rolida qisqarish yuz beradi.

Basel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan likvidlikka oid tamoyillar ham mazkur mavzu uchun muhim nazariy asos yaratadi. Ayniqsa, likvidlik qoplamasi koeffitsiyenti va barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti haqidagi yondashuvlar bank likvidligini baholashda nafaqat aktivlar hajmi, balki aktivlarning sifati, pul oqimlarining muddat tuzilmasi va stress holatidagi chidamlilikni ham inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi. Bu standartlar

NPL darajasining oshishi bankning kelajakdagi pul tushumlarini noaniq holatga keltirib, likvidlik indikatorlariga bevosita ta'sir qilishi mumkinligini anglatadi.

Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar bank likvidligini aktiv va passivlarning muddat jihatidan mosligi orqali izohlaydi. Shu ma'noda muammoli kreditlar aktivlarning nafaqat sifati, balki muddat bo'yicha qaytish intizomini ham buzadi. Kreditlar bo'yicha kechikishlar ortgan sari bankning kutilgan kirimlari rejalashtirilgan chiqimlar bilan mos kelmay qoladi. Natijada likvidlik taqchilligi nominal ko'rsatkichlarda emas, aynan pul oqimlari uzilishida namoyon bo'ladi.

Fikrimizcha, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, NPL va likvidlik o'rtasidagi bog'liqlikni faqat kredit portfeli sifati yoki faqat likvid aktivlar ulushi orqali tushuntirish yetarli emas. Ularni birlashtiruvchi asosiy bo'g'in - bu bankning pul oqimlari mexanizmidir. Muammoli kreditlar kutilayotgan tushumlarni kamaytiradi, zaxira xarajatlarini oshiradi, foydani qisqartiradi, reputatsion ishonchni zaiflashtiradi va natijada depozitlar hamda tashqi moliyalashtirish oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, tijorat banklarida kreditlarning qaytmasligi va likvidlik muammosini yagona dinamik tizim sifatida o'rganish ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tijorat banklarida kreditlarning qaytmasligi darajasi va likvidlik holati o'rtasidagi bog'liqlikni pul oqimlaridagi uzilishlar nuqtai nazaridan o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda asosan dinamik tahlil va tavsifiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida muammoli kreditlar darajasining yillar davomida o'zgarishi kuzatilib, ushbu o'zgarishlarning bank likvidligiga ta'siri mantiqiy va ketma-ketlik asosida yoritildi.

Tadqiqotning nazariy asosini bank likvidligi, kredit riski, muammoli kreditlar va pul oqimlari barqarorligiga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar asosida bank likvidligi faqat mavjud likvid mablag'lar hajmi orqali emas, balki kreditlardan kutilayotgan tushumlarning o'z vaqtida kelib tushishi, aktivlar sifati va majburiyatlarni bajarish imkoniyati bilan bog'liq holda talqin qilindi. Shu sababli muammoli kreditlar va likvidlik o'rtasidagi bog'liqlik statik holatda emas, balki vaqt davomida shakllanuvchi dinamik jarayon sifatida ko'rib chiqildi.

Empirik tahlilda bank tizimiga oid ochiq statistik ma'lumotlar, moliyaviy hisobotlar va rasmiy ko'rsatkichlardan foydalanildi. Asosiy e'tibor muammoli kreditlar ulushining yillar kesimidagi o'zgarishiga qaratildi. NPL darajasidagi o'sish yoki pasayish holatlari kuzatilib, ularning bank likvidligiga ta'siri foiz tushumlari, kredit portfeli sifati va pul oqimlari uzilishi bilan bog'liq ravishda izohlandi.

Tadqiqotda asosiy usul sifatida dinamik tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu usul yordamida NPLning turli yillardagi o'zgarish tendensiyasi tahlil qilinib, uning vaqt o'tishi bilan bank likvidligiga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritildi. Mazkur yondashuv muammoli kreditlarning ta'siri darhol emas, balki ma'lum davr o'tgach likvidlikda sezilishini ko'rsatish imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda grafik tahlil usulidan foydalanildi. NPLning yillar kesimidagi o'sish dinamikasi grafik ko'rinishda aks ettirilib, u orqali ko'rsatkichning umumiy yo'nalishi, o'zgarish sur'ati va ayrim davrlardagi keskin siljishlar ko'rsatib berildi. Grafik tahlil mavzuning mazmunini vizual tarzda ochib berish va muammoli kreditlar dinamikasini aniqroq tasvirlashga xizmat qildi.

Tadqiqotda tavsifiy tahlil usuli ham qo'llanildi. Ushbu yondashuv asosida muammoli kreditlar ortishi natijasida bankning kutilayotgan pul tushumlari qisqarishi, likvidlikka bosim kuchayishi va pul oqimlarida uzilishlar yuzaga kelishi nazariy hamda amaliy jihatdan izohlandi. Bunda statistik bog'liqlikni matematik modellashtirish emas, balki iqtisodiy mantiq va yillar kesimidagi kuzatuvlar asosida tushuntirish usuli tanlandi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiya muammoli kreditlarning yillar davomida o'zgarishini, ularning bank likvidligiga bosqichma-bosqich ta'sirini hamda pul oqimlaridagi uzilishlar bilan aloqadorligini sodda, aniq va mavzuga mos tarzda ochib berishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida kreditlarning qaytmasligi darajasi (NPL) bilan likvidlik holati o'rtasida bevosita va murakkab bog'liqlik mavjud. Muammoli kreditlar ulushining ortishi banklarning rejalashtirilgan pul oqimlarini izdan chiqarib, foizli daromadlar tushumining sekinlashishiga, asosiy qarz qaytish muddatlarining cho'zilishiga hamda joriy majburiyatlarni bajarish imkoniyatlarining qisqarishiga olib keladi. Shu bois NPL dinamikasini likvidlik ko'rsatkichlari bilan birgalikda tahlil qilish bank faoliyatidagi moliyaviy uzilishlar sabablarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot doirasida asosiy e'tibor kredit portfeli sifati yomonlashuvining banklarning pul oqimlariga ko'rsatadigan ta'sirini ochib berishga qaratildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muammoli kreditlar hajmi oshgan sharoitda bank balansidagi aktivlar nominal jihatdan saqlanib qolishi mumkin, biroq ularning real likvidlikni

ta’minlash qobiliyati pasayadi. Natijada banklar kundalik to‘lovlar, depozitlar qaytimi, qisqa muddatli majburiyatlar hamda yangi kreditlash faoliyatini moliyalashtirishda qo‘shimcha bosimga duch keladi. Bu esa kredit riski va likvidlik riski o‘rtasidagi o‘zaro uzviy bog‘liqlikni yanada yaqqol namoyon etadi.


Tahlil davomida aniqlandiki, NPL darajasining o‘sishi nafaqat daromadlilikka, balki bankning resurs bazasi barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kreditlardan kutilgan pul tushumlari kechikkan sari bank ichki pul oqimlari tarkibida nomutanosiblik yuzaga keladi. Bunday holatda banklar likvid aktivlarni sotish, qimmatroq tashqi resurslarni jalb qilish yoki kreditlash hajmini qisqartirish kabi choralarni ko‘rishga majbur bo‘ladi. Shu sababli muammoli kreditlar dinamikasini oddiy kredit sifati ko‘rsatkichi sifatida emas, balki likvidlik barqarorligiga bevosita ta’sir etuvchi omil sifatida baholash zarur.

Amaliy natijalar shuni anglatadiki, tijorat banklarida NPL ko‘rsatkichining o‘zgarishi pul oqimlaridagi uzilishlar bilan bir vaqtda kuzatilganda, bu holat bank likvidligini boshqarish tizimini yanada chuqurroq tahlil qilishni talab etadi. Ayniqsa, kredit portfelining tarkibi, qarzdorlarning to‘lov intizomi, zaxiralar hajmi va qisqa muddatli majburiyatlar o‘rtasidagi nisbatni kompleks baholash muhimdir. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari banklarda muammoli kreditlarni erta aniqlash, ularni restrukturizatsiya qilish hamda likvidlik buferlarini shakllantirish bo‘yicha amaliy yondashuvlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar tijorat banklarida kreditlarning qaytmasligi darajasi oshgan sari pul oqimlarining barqarorligi zaiflashishini, bu esa likvidlikka bosimni kuchaytirishini tasdiqlaydi. Shu sababli bank faoliyatini baholashda NPL ko‘rsatkichlarini alohida emas, balki pul oqimlari uzilishi va likvidlik xatarlari bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Quyidagi tahlil va rasmiy ko‘rsatkichlar aynan ushbu bog‘liqlikning amaliy ifodasini yoritib beradi.

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tijorat banklarida muammoli kreditlar (NPL) ulushi 2024-yil 1-yanvar holatiga 3,5 foizni, 2025-yil 1-yanvarda 4,0 foizni, 2026-yil 1-yanvar holatiga esa 3,0 foizni tashkil etgan. Ushbu dinamikada, dastlabki davrda muammoli kreditlar ulushi oshgan bo‘lib, bu kredit portfeli sifati yomonlashgani va qarz oluvchilar tomonidan majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishida qiyinchiliklar yuzaga kelganini ko‘rsatadi. NPL darajasining 2025-yilda yuqorilashi banklarning rejalashtirilgan pul tushumlari hajmiga salbiy ta’sir etib, likvidlikka bo‘lgan bosimni kuchaytirgan.

Mazkur holat, ayniqsa, kreditlardan qaytadigan asosiy qarz va foiz to‘lovlari kechikkan sharoitda, banklarning joriy to‘lov qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Chunki muammoli kreditlar ulushining ortishi bank aktivlarining daromad keltiruvchi va tez pulga aylanuvchi qismi samaradorligini pasaytiradi. Natijada banklar depozitlar qaytimi, qisqa muddatli majburiyatlar ijrosi hamda yangi kreditlar ajratish jarayonida likvid resurslar yetishmovchiligi xavfiga duch keladi. Shu jihatdan, rasmda kuzatilgan 2024-2025-yillardagi o‘sish pul oqimlaridagi uzilishlar kuchaygan davr sifatida baholanishi mumkin.



1-rasm. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) darajasi oshishining bank likvidligiga ta’siri[13]

Biroq 2026-yil boshiga kelib NPL ko‘rsatkichining 3,0 foizgacha pasaygani ijobiy tendensiyani ifodalaydi. Bu holat banklar tomonidan kredit portfelini sog‘lomlashtirish, qarzdorlikni qayta restrukturizatsiya qilish, undirish mexanizmlarini kuchaytirish yoki kredit ajratish siyosatini qat’iylashtirish natijasida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. NPL darajasining pasayishi banklar pul oqimlarining nisbatan tiklanayotganini, ya’ni kreditlardan tushumlar barqarorlashayotganini va likvidlik bosimi yumshayotganini anglatadi.

Umuman olganda, 1-rasm tijorat banklarida muammoli kreditlar darajasi bilan likvidlik holati o‘rtasida yaqin bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. NPL ulushining oshishi pul oqimlaridagi uzilishlarni kuchaytirsa, uning kamayishi banklarning likvidlik imkoniyatlarini tiklashga xizmat qiladi. Shu sababli tijorat banklarida kredit riski monitoringi, muammoli kreditlarni erta aniqlash va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish likvidlik barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari tijorat banklarida kreditlarning qaytmasligi darajasi bilan likvidlik holati o‘rtasida uzviy va ko‘p bosqichli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, muammoli kreditlar ulushining ortishi banklarning rejalashtirilgan pul kirimlarini sekinlashtiradi, foizli daromadlar oqimini qisqartiradi, zaxira ajratish ehtiyojini kuchaytiradi hamda natijada joriy va istiqboldagi likvidlik pozitsiyasiga bosim o‘tkazadi. Shu bois NPL bank faoliyatida faqat kredit sifati bilan bog‘liq ko‘rsatkich sifatida emas, balki pul oqimlari uzilishi va moliyalashtirish barqarorligiga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida baholanishi zarur.

Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari shuni tasdiqladiki, muammoli kreditlarning likvidlikka ta’siri ko‘pincha bir vaqtning o‘zida emas, balki ma’lum kechikish bilan yuzaga chiqadi. Dastlab banklar likvid aktivlar zaxirasi, aksiyadorlar ko‘magi yoki qayta moliyalashtirish imkoniyatlari hisobiga barqaror ko‘rinishi mumkin, biroq kreditlardan kutilgan tushumlarning buzilishi vaqt o‘tishi bilan pul oqimlari tarkibida nomutanosiblikni kuchaytiradi. Natijada likvid aktivlar sarfi ortadi, tashqi resurslarga ehtiyoj kuchayadi va bankning to‘lov qobiliyatiga nisbatan xavf oshadi.

Tahlil qilingan statistik ko‘rsatkichlar ham ushbu bog‘liqlikni amaliy jihatdan tasdiqladi. Xususan, 2024-yildan 2025-yil boshigacha bo‘lgan davrda muammoli kreditlar ulushining ortishi kredit portfeli sifati yomonlashganini va bu holat banklarning rejalashtirilgan tushumlariga salbiy ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. 2026-yil boshiga kelib NPL ulushining pasayishi esa kredit portfelini sog‘lomlashtirish choralari va pul oqimlarining nisbatan tiklanishi bilan izohlanishi mumkin.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tijorat banklarida NPL va likvidlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni samarali boshqarish uchun quyidagi amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, banklarda muammoli kreditlarni erta aniqlash tizimini kuchaytirish zarur. Kredit bo‘yicha to‘lov intizomida kichik kechikishlar, qarz oluvchining pul oqimlaridagi zaiflashuv, ta’minot qiymatining pasayishi va kredit toifasining yomonlashuvi likvidlik bo‘yicha keyingi muammolarning dastlabki signali sifatida baholanishi lozim. Shu maqsadda banklarda erta ogohlantiruvchi indikatorlar tizimi joriy etilishi va bu indikatorlar kredit bo‘linmasi bilan bir qatorda likvidlikni boshqaruvchi tuzilmalar tomonidan ham doimiy monitoring qilinishi kerak.

Ikkinchidan, kredit riski va likvidlik riskini alohida emas, yagona boshqaruv tizimi doirasida ko‘rib chiqish talab etiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, muammoli kreditlarning ortishi pul oqimlari uzilishi orqali likvidlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli kredit monitoringi natijalari, zaxira siyosati va likvidlikni boshqarish qarorlari o‘zaro bog‘liq holda qabul qilinishi lozim. Ayniqsa, kredit bo‘limi, risklarni boshqarish xizmati va xazina bo‘linmasi o‘rtasida axborot almashinuvi tezkor va uzluksiz bo‘lishi zarur.

Uchinchidan, banklar pul oqimlarini prognozlash amaliyotini yanada chuqurlashtirishi kerak. Kreditlardan kutilayotgan kirimlar, depozitlar chiqimi, foiz to‘lovlari va qisqa muddatli majburiyatlar muntazam ravishda qayta baholanib borilishi zarur. Ayniqsa, muammoli kreditlar ulushi ortayotgan davrlarda pul oqimlari bo‘yicha konservativ ssenariylar ishlab chiqilishi va bankning likvidlik ehtiyoji oldindan aniqlanishi muhimdir. Bu yondashuv bankka muammo yuzaga kelgandan keyin emas, balki undan oldin choralar ko‘rish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish va undirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Tadqiqot natijalari NPL darajasining pasayishi pul oqimlari barqarorlashuvi va likvidlik bosimining yumshashiga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Shu sababli qarzdorlarning moliyaviy holatini individual baholash, qayta jadallashtirish choralarini qo‘llash, undirish jarayonlarini tezlashtirish va ta’minot bilan ishlash mexanizmlarini samarali tashkil etish banklar uchun ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerak.

Beshinchidan, tijorat banklari likvidlik buferlarini yetarli darajada shakllantirishi lozim. Muammoli kreditlar ortgan sharoitda kreditlardan pul tushumlari kechikadi, shu sababli bank joriy majburiyatlarni bajarish uchun qo‘shimcha himoya qatlamiga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun yuqori likvid aktivlar ulushini maqbul darajada saqlash, qisqa muddatli to‘lov bosimiga chidamli resurs bazasini shakllantirish va favqulodda moliyalashtirish rejasini amalda ishlaydigan hujjatga aylantirish zarur.

Oltinchidan, depozit bazasi sifatini yaxshilash va barqaror resurslarni ko‘paytirish muhim hisoblanadi. Muammoli kreditlar ortganda bankning reputatsion xavfi kuchayishi va depozit oqimi beqarorlashishi mumkin. Shu sababli banklar talab qilib olinguncha mablag‘larga ortiqcha tayanib qolmasdan, uzoqroq muddatli va barqaror moliyalashtirish manbalarini kengaytirishi kerak. Bu likvidlik bosimi kuchaygan vaziyatlarda bankning tashqi zarbalarga chidamliligini oshiradi.

Yettinchidan, banklar NPLning o‘sish davrlarida kreditlash siyosatini sifat jihatdan qayta ko‘rib chiqishi zarur. Kredit hajmini kengaytirishning o‘zi ijobiy natija sifatida baholanmasligi kerak, asosiy e’tibor kredit portfelining sifati va kelajakdagi pul oqimlarini shakllantirish qobiliyatiga qaratilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, qarz oluvchilarni baholash mezonlarini kuchaytirish, tarmoqlar kesimida limitlar belgilash va yuqori xavfli yo‘nalishlarda konservativ yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Sakkizinchidan, stress holatlariga tayyorgarlik mexanizmlarini mustahkamlash lozim. Muammoli kreditlar va likvidlik o‘rtasidagi bog‘liqlik oddiy davrlarda to‘liq sezilmasligi mumkin, ammo salbiy makroiqtisodiy sharoitlar, foiz stavkalari o‘zgarishi yoki depozitlar chiqimi tezlashganda ushbu bog‘liqlik ancha keskin namoyon bo‘ladi. Shuning uchun banklar NPL o‘sishi bilan bog‘liq alohida stress ssenariylarini ishlab chiqishi va ularni likvidlikni boshqarish qarorlarida muntazam qo‘llashi kerak.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari tijorat banklarida kreditlarning qaytmasligi va likvidlik muammolari o‘rtasida chuqur funksional bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi. Muammoli kreditlar ortishi bankning kutilayotgan pul tushumlarini zaiflashtiradi, resurs bazasi barqarorligini pasaytiradi va likvidlikka bosimni kuchaytiradi. Shu sababli banklarda NPLni boshqarish siyosati likvidlikni boshqarish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Ana shundagina pul oqimlaridagi uzilishlarning oldini olish, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va risklarni boshqarish samaradorligini oshirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Diamond, D. W., & Dybvig, P. H. (1983). Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity. Journal of Political Economy, 91(3), 401–419.
2. Berger, A. N., & Bouwman, C. H. S. (2009). Bank Liquidity Creation. Review of Financial Studies, 22(9), 3779–3837.
3. Brunnermeier, M. K., & Pedersen, L. H. (2009). Market Liquidity and Funding Liquidity. Review of Financial Studies, 22(6), 2201–2238.
4. Vento, G. A., & Ganga, P. L. (2009). Bank Liquidity Risk Management and Supervision. Journal of Banking Regulation, 10(1), 7–26.
5. Louzis, D. P., Vouldis, A. T., & Metaxas, V. L. (2012). Macroeconomic and Bank-Specific Determinants of Non-Performing Loans in Greece. Journal of Banking & Finance, 36(4), 1012–1027.
6. Espinoza, R., & Prasad, A. (2010). Nonperforming Loans in the GCC Banking System and Their Macroeconomic Effects. IMF Working Paper.
7. Klein, N. (2013). Non-Performing Loans in CESEE: Determinants and Impact on Macroeconomic Performance. IMF Working Paper.
8. Acharya, V. V., & Mora, N. (2015). A Crisis of Banks as Liquidity Providers. Journal of Finance, 70(1), 1–43.
9. Cornett, M. M., McNutt, J. J., Strahan, P. E., & Tehranian, H. (2011). Liquidity Risk Management and Credit Supply in the Financial Crisis. Journal of Financial Economics, 101(2), 297–312.
10. Basel Committee on Banking Supervision. (2013). Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools.
11. Basel Committee on Banking Supervision. (2014). Basel III: The Net Stable Funding Ratio.
12. Basel Committee on Banking Supervision. (2008). Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision.
13. www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.
14. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligining rasmiy sayti ma’lumotlari



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. № 3

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz